

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO`LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

**TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO`LAJAK  
O`QITUVCHILARNI IJTIMOY- PEDAGOGIK FAOLIYATINI  
RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI**

**Yo`Ldasheva Shohsanam Zafarjon qizi**  
*Pedagogika mutaxassisligi 2-kurs magistranti*  
*Qo`qon davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Ta`limda axborot texnologiya vositalari asosida bo`lajak o`qituvchilarni ijtimoiy pedagogik faoliyatini rivojlantirishning shart-sharoitlari ilmiy asosda yoritilgan. Unda zamonaviy raqamli vositalar va interaktiv platformalarning ta`lim jarayoniga joriy etilishi natijasida talabalar kasbiy kompetensiyalarining, xususan, kommunikativ, tashkiliy va axloqiy-psixologik ko`nikmalarining shakllanishiga ta`siri tahlil qilinadi.*

**Kalit so`zlar:** *axborot texnologiyalari, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyat, raqamli ta`lim, kasbiy kompetensiya, innovatsion muhit, bo`lajak o`qituvchi.*

**УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ  
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ**

**Йулдашева Шохсанам Зафаржон кизи**  
*магистрант 2-го курса по специальности "педагогика".*  
*Кокандский государственный университет*

**Аннотация:** *В данной статье научно обоснованы условия развития социально-педагогической деятельности будущих учителей на основе использования информационных технологий в образовании. Рассматривается влияние внедрения современных цифровых средств и интерактивных платформ в учебный процесс на формирование профессиональных компетенций студентов, в частности коммуникативных, организационных и нравственно-психологических навыков.*

**Ключевые слова:** *информационные технологии, социально-педагогическая деятельность, педагогическая деятельность, цифровое образование, профессиональная компетенция, инновационная среда, будущий учитель.*

**CONDITIONS FOR DEVELOPING THE SOCIAL AND PEDAGOGICAL  
ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS THROUGH INFORMATION  
TECHNOLOGIES IN EDUCATION**

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

**Yoldasheva Shohsanam Zafarjon qizi**

*A 2nd-year master's student majoring in pedagogy.*

*Kokand state university*

**Abstract:** *This article scientifically substantiates the conditions for developing the social and pedagogical activities of future teachers through the use of information technologies in education. It analyzes the impact of introducing modern digital tools and interactive platforms into the educational process on the formation of students' professional competencies, particularly communicative, organizational, and moral-psychological skills.*

**Keywords:** *information technologies, social and pedagogical activity, pedagogical activity, digital education, professional competence, innovative environment, future teacher.*

**Kirish** Hozirgi davrda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ijtimoiy-pedagogik faoliyatning yangi shakllarini yaratadi. Bu jarayon ta'limning ochiqligi, shaffofligi va interfaoligini ta'minlash bilan birga, talabalarni mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, kommunikativ aloqalarni yo'lga qo'yish hamda axloqiy-psixologik madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jumladan, axborot texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik faoliyatini takomillashtirish va raqamli ta'lim muhitini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851-son, 06.10.2020 — "Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish" bo'yicha farmoni"[1.4], 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6 oktyabrdagi PQ-4851 sonli «Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integrasiya qilish shoratadbirlari to'g'risida» Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 iyuldagi 228-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'рта maxsus ta'lim vazirligi huzurida ta'lim mussasalarida elektron ta'limni joriy etish markazini tashkil etish to'g'risida" Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Mamlakatimiz olimlari o'z izlanishlari orqali bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik faoliyatini axborot texnologiyalari asosida rivojlantirishni ochib bergan. Mamatxanova Nargiza Tohirovna, Amonov.M.N Ijtimoiy pedagogik faoliyatni tashkil etishga qaratilgan jarayon mazmunini ochib berishga harakat qilgan. A.A.Axmedov Egamberdieva T.A. talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini o'rinli qo'llay olish

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

ijtimoiy-pedagogik faoliyatda tarbiya masalasiga e'tibor bergan, Z.A.Umarova bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik faoliyatini rivojlantirishda ularning individual xususiyatlariga e'tibor bergan.

Ta'limda axborot texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy pedagogik faoliyatini rivojlantirish borasida xorij olimlari turli tomonlardan yondashib o'rganganlar. E. Mayer: U ko'p omilli ta'lim nazariyasi bilan mashhur. I.A.Lipskiy R.Safarova Slobodshikov V o'z tadqiqotlari doirasida zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatini takomillashtirishda shaxs tarbiyasini rivojlantiruvchi ta'lim paradigmalarga e'tibor bergan. Mudrik A. V. M.Rojkov lar "ijtimoiy tajriba" kategoriyasini tushunish asosida talabalarning ijtimoiy pedagogik faoliyatiga yondashgan. Topka N.B. Timonin A.I. lar Talabalarda ijtimoiy pedagogik faoliyatida ta'limni tashkil qilishning jarayonlariga to'xtalib o'tgan.

**MUHOKAMA VA NATIJA.** Ijtimoiy-pedagogik faoliyat - bu shaxsga uning ijtimoiylashuvi jarayonida yordam berishga, uning ijtimoiy-madaniy tajribasini o'zlashtirishga va uning jamiyatda o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat turi[2.83] Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari (AT) vositalari — kompyuterlar, internet resurslari, multimedia dasturlari, virtual va sun'iy intellekt tizimlari — o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular ijtimoiy pedagogik faoliyatning asosi hisoblangan o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni samarali tashkil etish, individual yondashuvni amalga oshirish, didaktik materiallarni boyitish hamda ta'limning uzluksizligini ta'minlash imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirish uchun bir nechta muhim shart-sharoitlar mavjud. Birinchidan, texnik sharoitlar – ta'lim muassasalarini kompyuter texnikasi, internet tarmog'i, multimedia vositalari va raqamli o'quv platformalari bilan ta'minlash orqali raqamli ta'lim jarayonini barqaror yo'lga qo'yishimiz mumkin.

Ikkinchidan, tashkiliy-pedagogik sharoitlar – o'qituvchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish, o'quv dasturlarini raqamli formatda ishlab chiqish va ularni ta'lim amaliyotiga joriy etishdir.

Uchinchidan, psixologik va ijtimoiy sharoitlar – o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlikni, axborot madaniyatini va raqamli etikani shakllantirishni ta'minlaydi.[4.58] To'rtinchidan, innovatsion muhit yaratish – ta'limda yangi g'oyalar, raqamli metodlar va ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, bu orqali o'qituvchilarning faoliyatida yangilanishlar kiritish imkonini beradi. Ta'lim jarayonini raqamlashtirish orqali bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, tahliliy tafakkur, muloqot madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlar shakllanadi. Raqamli vositalardan foydalanish o'qituvchining ijtimoiy-pedagogik rolini kengaytirib, uni zamonaviy axborot jamiyatining faol ishtirokchisiga aylantiradi.[3.198]. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan raqamli ta'lim

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
21.10.2025

muhiiti pedagogik jarayonni shaffof, interaktiv va innovatsion yo'nalishda rivojlantiradi. Bu esa kasbiy kompetensiyaning o'sishiga, o'qituvchining o'z ustida ishlash madaniyatining shakllanishiga va ijtimoiy-pedagogik faoliyatning samaradorligini oshirishga olib keladi.

**XULOSA VA TAVSIYALAR.** Xulosa qilsak, Raqamli vositalar yordamida tashkil etilgan raqamli ta'lim muhiiti o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish, ijodkorlikni rivojlantirish va kasbiy kompetensiyani oshirish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish, ijtimoiy-pedagogik faoliyatda pedagogik, psixologik va texnologik yondashuvlar uyg'unligini ta'minlangandagina bu jarayon samara beradi.

Tavsiyalar:

1. Bo'lajak o'qituvchilar uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha maxsus amaliy kurslar tashkil etish.

2. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish maqsadida ijtimoiy-pedagogik faoliyatda raqamli texnologiyalar asosida loyihaviy yondashuvlarni qo'llash.

3. Innovatsion muhitni shakllantirish uchun ta'lim muassasalarida ochiq elektron resurslar, interaktiv treninglar va onlayn tajriba almashuv maydonlarini yo'lga qo'yish kerak.

4. Axborot texnologiyalarini qo'llashning psixologik va etik jihatlariga alohida e'tibor qaratish, bu yo'nalishda o'qituvchilarning raqamli madaniyatini oshirish zarur.

Bu omillar uyg'un qo'llanganda, bo'lajak o'qituvchilar zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan, yuqori kasbiy kompetensiyaga ega va ijtimoiy mas'uliyatli mutaxassislar sifatida shakllanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4851-son, 06.10.2020 — "Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish" bo'yicha farmoni"

2. A.A. AXMEDOV IJTIMOIIY PEDAGOGIKA Oliy ta'lim yo'nalishi talabalari uchun(O'quv qo'llanma) "KAMOLOT" nashriyoti BUXORO-2023 150-bet

3. S. (2021). Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari. – Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti, 230 bet.

4. Tuxliyeva M., To'xtayeva N. (2020). "Pedagogik jarayonda axborot texnologiyalaridan foydalanishning psixologik omillari." Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, №4, 320 bet.